

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**TUPROQ BIOGEOKIMYOSI – BIOSFERANING BARQAROR
RIVOJLANISHI VA MUHOFAZASI**

**xalqaro ilmiy
anjuman materiallari**

TO'PLAMI

СБОРНИК

**материалов международной
научной конференции**

**БИОГЕОХИМИЯ ПОЧВ – УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ И
ОХРАНА БИОСФЕРЫ**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

1-SHO'BA: BIOSFERADAGI TUPROQ BIOGEOKIMYOVI JARAYONLAR

**Г.Юлдашев, М.Т.Исагалиев, А.Т.Турдалиев, У.Б.Мирзаев, И.Н.Мамажонов,
С.А.Махрамхужаев, З.М.Азимов**

Гумусное и энергетическое состояние горно-коричневых почв Западной Ферганы 9

**Z.A.Jabbarov, T.Abdraxmanov, U.M.Nomozov, K.A.Idirisov, S.Q.Mahammadiyev,
O.N.Imomov, B.B.Abdukarimov, Sh.Z.Abdullahayev, N.Y.Abdurahmonov, G.T.Djalilova,
Sh.M.Xoldorov, S.M.Małgorzata, W.Bogusław, Y.M.Tokhtasinova**

Orol dengizining qurigan tubida tarqalgan tuproq-gruntlarining radiologik xavfsizlik

ko'rsatkichlari 16

А.С.Вайнберг, Е.В.Абакумов

Микропластик в почвах: обзор экологических рисков 20

В.М.Гончаров, Е.В.Шеин

Гранулометрия как физическая основа биогеохимических процессов 24

**G.T.Parpiyev, N.J.Xushvaqtov, A.X.Shukurov, S.Sh.Hasilbekov, H.I.Ibodullayev,
D.H.Hasilbekova**

Kartoshka o'simligini *In vitro* sharoitida ko'paytirishda ozuqa muhitining tarkibi va
tayyorlanish texnologiyasi 30

О.Б.Цветнова, В.М.Гончаров, Ш.Я.Эшпулатов, Г.Х.Утанова

Влияние лесных насаждений на свойства темно-серых лесных почв 35

Е.И.Походня, Е.В.Абакумов

Экотоксикологическая оценка почв Юнтоловского заказника 40

**G'.Yuldashev, G.T.Sotiboldiyeva, X.A.Abduxakimova, Z.M.Azimov, I.N.Mamajonov,
S.A.Maxramxujayev**

Gipergen sharoitda pedogen elementlar biogeokimyosi 44

U.B.Mirzayev, M.Ibroximova, F.Yulbarsova, F.Toyloqova, J.Komilov

Farg'ona viloyati sug'oriladigan tuproqlarining unumdorligi va uni oshirish muammolari 53

A.T.Turdaliyev, I.I.Musayev, A.A.Ahmadjonov, D.O.Anafiyayeva

Sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlarda biomikroelementlarning biogeokimyosi 58

Z.M.Azimov, G'.Yuldashev, N.Sh.Yusufjonova

Madaniy fitomeliorant o'simliklarning biogeokimyosi 64

V.Y.Isaqov, S.B.Akbarov

Landshaft ekologik holatni Yozyovon (Markaziy Farg'ona) suv ombori ta'sirida o'zgarishi 67

K.A.Asqarov, A.A.Ahmadjonov, I.I.Musayev, A.A.Xalilov

Sug'oriladigan tuproqlarda biomikroelementlar geokimyosi 74

I.M.Yusupov

Tuproq unumdorligini oshirishda anaerob azotofiksator baccillaceae oilasiga kiruvchi

Clostridium pasteurianum bakteriyasining tuproqda indikatorligi va ahamiyati 80

Z.J.Isomiddinov, S.M.Isag'aliyeva

Janubiy Farg'ona cho'l tuproqlari va piyozi (*Allium cepa L.*) o'simligi biogeokimyosi 84

M.X.Diyorova, Q.M.O'rroqov

Sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlarda karbonatlar miqdori 88

H.T.Artikova, S.S.Shadiyeva

Buxoro tumani sug'oriladigan tuproqlarining xossa-xususiyatlari tadqiqi 91

M.X.Diyorova, S.N.Holiqova, M.F.Mamadiyorov

G'uzor massivida tarqalgan qo'riq och tusli bo'z tuproqlarning agrokimyovi xossalari 96

Z.J.Isomiddinov, M.T.Isag'aliyev, G'.Yuldashev

Tog'li jigarrang tuproqlar va *Allium karataviense* regel, *Fritillaria sewerzowii* regel

o'simliklari biogeokimyosi 101

M.T.Isag'aliyev, G'.Yuldashev, M.I.Aktamov, B.M.Qo'chqorov

Sug'oriladigan tuproqlarda suvda oson eruvchi tuzlar geokimyosi 107

2-SHO'BA: TUPROQ UNUMDORLIGI – LANDSHAFTNING BARQAROR**RIVOJLANISH OMILI**

J.Ismomonov, O'.X.Mamajanova, G.N.Kattayeva, A.T.Do'saliyev

Orol dengizi qurigan tubi tuproq-gruntlarida elementlarning geokimyovi akkumulyatsiyasi 113



UO'K: 631.416.9

**SUG'ORILADIGAN OCH TUSLI BO'Z TUPROQLARDA BIOMIKROELEMENTLARNING
BIOGEOKIMYOSI**

БИОГЕОХИМИЯ БИОМИКРОЭЛЕМЕНТОВ В ОРОШАЕМЫХ СВЕТЛЫХ СЕРОЗЕМАХ

BIOGEOCHEMISTRY OF BIOMICROELEMENTS IN IRRIGATED LIGHT SIEROZEMS

Turdaliyev Avazbek Turdaliyevich¹ 

¹Farg'ona davlat universiteti, b.f.d., professor

Musayev Iskandar Ibragimovich² 

²Farg'ona davlat universiteti, doktorant

Ahmadjonov Avazbek Akmaljon o'g'li³ 

³Farg'ona davlat universiteti, doktorant

Anafiyayeva Dildoraxon Odiljon qizi⁴

⁴Farg'ona davlat universiteti, magistrant

Annotatsiya

Maqolada Farg'ona viloyatida shakllangan sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlar va ularda yetishtirilayotgan uzum navlarning kimyoviy element tarkibi keltirilgan. Ushbu tuproqlardagi hamda ularda yetishtirilayotgan uzum navlari vegetativ organlari mikroelementlarning biologik singdirish koeffitsientlari hamda geokimyoviy spektrlari ishlab chiqilgan.

Аннотация

В статье представлено химический элементный состав орошаемых светлых сероземов, сформировавшихся на территории Ферганской области, и выращиваемых на них сортов винограда. Разработаны коэффициенты биологического поглощения и геохимические спектры микрозлементов в этих почвах и органах возделываемых сортов винограда.

Abstract

The article presents the chemical elemental composition of irrigated light sierozems formed in the Fergana region and the grape varieties grown on them. Biological absorption coefficients and geochemical spectra of microelements in these soils and organs of cultivated grape varieties have been developed.

Kalit so'zlar: biogeokimyo, biologik singdirish koeffitsiyenti, biomikroelement, migratsiya, akkumulyatsiya, spektr.

Ключевые слова: биогеохимия, коэффициент биологического поглощения, биомикроэлемент, миграция, аккумуляция, спектр.

Key words: biogeochemistry, biological absorption coefficient, biomicroelements, migration, accumulation, spectrum.

KIRISH

Dunyoda tuproq tarkibidagi kimyoviy moddalar, xususan elementlar miqdori va balansi boshqarish muammolari, atrof-muhit musaffoligi nuqtai nazaridan organik dehqonchilik yuritish va o'zgarishlarni aniqlash, salbiy jarayonlarni bartaraf etish, kimyoviy elementlarning ruxsat etilgan chegaraviy ulushlari va fon miqdorlarini ishlab chiqish bo'yicha bir qator ustuvor yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamiz tuproqlari turli ta'sirlar natijasida bir qator o'zgarishlarga yuz tutgan. Ushbu o'zgarishlarga tuproqlardan dehqonchilikda ilmiy asoslanmagan holda foydalanish, me'yordan ortiqcha kimyoviy o'g'itlardan foydalanish, karyerlar ochish va boshqalar sabablarni keltirish mumkin. Shuningdek, har yili dehqonchilik qilinadigan maydonlardan hosilni to'laligicha olib chiqib

1-SHOBA: BIOSFERADAGI TUPROQ BIOGEOKIMYOVIY JARAYONLAR

ketilishi, organik ma'danlardan foydalanmaslik oqibatida kimyoviy elementlar miqdorining keskin o'zgarishiga olib kelmoqda. Shuning uchun ham sug'oriladigan tuproqlarni geokimyoviy hamda biogeokimyoviy nuqtai nazardan tadqiq qilish nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILII VA METODOLOGIYA

Tuproqlar va ularda yetishtirilayotgan o'simliklarning kimyoviy elementlarni migratsiyasi va akkumulyatsiyasi jarayonlarini o'rganishda A.I.Perelman [1] tomonidan ishlab chiqilgan geokimyoviy baryerlarning ahamiyati katta bo'lib, qisqa masofada kimyoviy elementlarning migratsiya jadalligini keskin kamayishi va uning natijasida konsentratsiyasining ortishi yoki kamayishi tushuniladi.

Landshaft geokimyoviy tadqiqotlarimiz tuproq qatlamlarida biomikroelementlarni akkumulyatsiya, differensiatsiya va boshqa xususiyatlarni o'rganishga asoslangan.

Bu borada bir qator olimlar va tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, tuproqlarning geokimyoviy xususiyatlari A.I.Perelman [1], M.A.Glazovskaya [2], A.P.Vinogradov [3], V.V.Dobrovolskiy [4], G.Yuldashev [5, 9], V.Yu.Isaqov [6], Sh.Y.Eshpulatov [7], D.M.Xoldarov [8], M.T.Isag'aliyev [9], A.T.Turdaliyev [5, 10, 11] kabi ko'plab olimlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Dala tadqiqotlarida V.V.Dokuchayev usulida, tadqiqot obyektlaridan olingan tuproq namunalarini geokimyoviy tahlil qilishda A.I.Perelman [1], M.A.Glazovskayalarning [2] majmuaviy usullaridan foydalanildi. Shuningdek, tuproq tarkibidagi mikroelementlarning yalpi miqdorlari O'zRFA Yadro fizikasi institutida neytron-aktivatsiyon analiz usulida aniqlandi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Sug'oriladigan tuproqlar va o'simliklarning kimyoviy tarkibini biogeokimyoviy nuqtai nazardan tadqiq qilishda albatta, ushbu tuproqlarda yetishtirilayotgan o'simliklarning ham element tarkibi, ularning migratsiyasi va boshqalar o'rganiladi. Tuproqlardagi kimyoviy elementlarning ko'p yoki kam miqdorlari o'simliklarning morfologik belgilariga, ularning rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Zn elementining o'simliklarning fiziologik roli, uning azot va uglevod almashinuvidagi ishtiroki, xlorofill hosil bo'lishi, fotosintez va ferment faoliyi oshishi bilan chambarchas bog'liq. Zn o'simliklarning makro- va mikroelementlar bilan ta'minlanishiga, o'simliklarning suv rejimiga, noqulay ekologik omillar va kasalliklarga chidamliligiga muhim ta'sir qiladi. Tuproqning Zn bilan normal ta'minlanishi hosildorlikni oshirish va o'simlik mahsulotlari sifatini yaxshilashga yordam beradi. O'simliklarda Zn yetishmasligi bilan xloroz kuzatiladi, mevali ekinlarda mayda barglar va rozetlar rivojlanadi [12].

Zn tanqisligi generativ organlar va meva hosil bo'lishiga to'sqinlik qiladi, uning yetishmasligi donli ekinlarda urug' hosil bo'lishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [13].

Cu o'simliklarning tomonidan o'rtacha so'rilish darajasiga ega bo'lgan kimyoviy elementlardan biridir. Har xil turdag'i o'simliklarning biologik xususiyatlari va tuproqdagi elementning turlicha mavjudligi sababli misni to'plashda selektivlik bilan tavsiflanadi. O'simliklarning Cu miqdoriga ta'sir qiluvchi asosiy omillar ob-havo sharoiti, tuproq xususiyatlari, ularning elementning harakatchan shakli, o'g'itlar, qishloq xo'jaligi ekinlarining biologik va tur xususiyatlari va boshqalar [12].

Cu ta'sirida o'simliklarning yuqori va past haroratlarga chidamliligi oshadi va zamburug'li va bakterial kasalliklarga moyilligi pasayadi. Cu yetishmovchiligi karbonatlar va organik muddalar ko'p bo'lgan tuproqlarda, atrof-muhitning ishqoriy reaksiyasida namoyon bo'ladi, bu mikroelementning o'simliklarning uchun harakatchanligi va mavjudligini kamaytiradi [12].

Mn ning o'simliklarning fiziologik roli uning oksidlanish-qaytarilish jarayonlaridagi ishtiroki bilan bog'liq. Bu element fotosintez, nafas olish, uglevod va oqsil almashinuvida, xlorofill, vitaminlar va fermentlarning hosil bo'lishida, nuklein kislotalarning sintezida va irlari ma'lumotlarni uzatishda muhim rol o'yaydi. Mn ning yetarli emasligi yoki ortiqcha ta'minlanishi bilan o'simliklarda xloroz rivojlanadi, ularning o'sishi va rivojlanishi susayadi, hosildorlik pasayadi va mahsulot sifati yomonlashadi [14].

O'simliklarning vegetatsiya davrida namlik va haroratning o'zgarishi tuproqlarning biologik faoliygiga, oksidlanish-qaytarilish potensialining qiymatiga, ularning harakatchan Mn ning tarkibiga va uning o'simliklarga kirish tezligiga katta ta'sir ko'rsatadi [12].

1-SHOBA: BIOSFERADAGI TUPROQ BIOGEOKIMYOVIY JARAYONLAR

O'simliklarni rivojlanishi uchun ahamiyatli mikroelementlardan mis, rux, marganets, molibdenlarni miqdorlarini tadqiqot obyektida yetishtirilayotgan uzum navlarining tanasi, mevasi va bargida ham aniqlandi va quyidagi jadvalda keltirildi.

1-jadval

Uzum organlarida biomikroelementlar miqdori, mkg/g

Uzum navlari va tuproq kesmasi raqami	Organlar nomi	Mn	Mo	Zn	Cu*
Saperavi	meva	3,2	0,1	2,4	5,0
	tana	16,5	0,1	19,0	1,0
	barg	70,4	0,39	22,0	1,0
2 I	tuproq	425,5	1,6	74,75	20
Xindogni	meva	4,8	0,1	3,4	6,1
	tana	12,0	0,34	19,0	1,0
	barg	67,8	0,41	19,0	1,0
6 I	tuproq	507,5	2,55	91,75	20
Bayan shirey	meva	2,3	0,1	2,8	6,6
	tana	12,7	0,45	11,0	4,3
	barg	44,6	0,59	14,0	9,5
9 I	tuproq	712,0	2,18	105,6	20

* Cu elementining miqdori tuproq klarki bo'yicha.

Laboratoriya analizlari natijalariga ko'ra, Mn va Mo mikroelementlari uzumning bargida uning mevasi va tanasiga nisbatan bir necha marotaba ko'p ekanligi aniqlandi. Masalan, Mn uzum mevasida 2,3-4,8 mkg/g bo'lsa, uning bargida 44,6-70,4 mkg/g atrofida tebranadi.

O'simliklardagi Mn ning normal konsentratsiyasi 20-300 mkg/g, toksik miqdori 300-500 mkg/g ga teng deb qabul qilingan[12].

Zn ning miqdori ham uzum mevasida kam bo'lib, 2,4-3,4 mkg/g ga teng. Lekin uzum tanasi va bargida ko'p miqdorlarda uchraydi va 11,0-22,0 mkg/g ko'rsatkichlarga ega. Zn o'simliklar tomonidan o'rtacha yutilish darajasiga ega. O'simliklardagi Zn ning normal konsentratsiyasi 27 dan 150 mkg/g gacha, toksik konsentratsiyasi 150-400 mkg/g ni tashkil qiladi [12].

Cu ning miqdorlari boshqa mikroelementlardan bir oz farqli, saperavi va xindogni navlarining mevasida ularning tanasi va bargiga nisbatan ko'proq, aksinchalik shire navining tana a'zolari tarkibida esa jiddiy farqlar mavjud emas. O'simliklardagi misning normal konsentratsiyasi 5 dan 30 mkg/g gacha, toksik konsentratsiyasi esa 30-100 mkg/g oralig'ida tebranadi [12].

2-jadval

Tuproq va uzum organlarida biomikroelementlarning statistik tahlili (saperavi navi)

M _x , %	M _y , %	O'rtacha xatolik, ± m	O'rtacha kvadratik chetlanish, ± δ	Aniqlik ko'rsatkichi, p, %	Variatsiya koefitsiyenti, v, %	Kuzatishlar soni, n	Korrelyatsiya koeffisiyenti, r
Tuproq va mevadagi Mn							
3,2	425,5	0,11 5,00	0,28 12,26	3,5 1,18	8,65 2,88	6	0,99
Tuproq va tanadagi Mn							
16,5	425,5	0,64 5,00	1,58 12,26	3,9 1,18	9,56 2,88	6	0,92
Tuproq va bargdagi Mn							
70,4	425,5	1,06	2,6	1,51	3,69	6	0,94


1-SHOBA: BIOSFERADAGI TUPROQ BIOGEOKIMYOVIY JARAYONLAR

		5,00	12,26	1,18	2,88			
Tuproq va mevadagi Mo								
0,1	1,6	1,55 0,11	3,80 0,27	12,76 6,91	31,27 16,93	6	0,87	
Tuproq va tanadagi Mo								
0,1	1,6	1,34 0,11	3,28 0,27	11,34 6,91	27,78 16,93	6	0,92	
Tuproq va bargdagi Mo								
0,39	1,6	2,83 0,11	6,95 0,27	7,28 6,91	17,82 16,93	6	0,89	
Tuproq va mevadagi Zn								
2,40	74,75	0,18 0,66	0,43 1,61	7,45 0,88	18,34 2,16	6	0,99	
Tuproq va tanadagi Zn								
19,00	74,75	0,44 0,66	1,08 1,61	2,31 0,88	5,67 2,16	6	0,96	
Tuproq va bargdagi Zn								
22,00	74,75	0,42 0,66	1,04 1,61	1,92 0,88	4,71 2,16	6	0,88	
Tuproq va mevadagi Cu								
5,0	20,0	0,27 0,62	0,65 1,51	5,34	13,08	6	0,92	
Tuproq va tanadagi Cu								
1,0	20,0	8,83 0,62	0,22 1,51	8,81 3,09	21,57 7,56	6	0,98	
Tuproq va bargdagi Cu								
1,0	20,0	0,11 0,62	0,28 1,51	11,37 3,09	27,86 7,56	6	0,97	

Statistik tahlillardan ko'rinib turibdiki, biomikroelementlarning tuproq va uzum tana a'zolarini o'ttasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentlari ijobji, ya'n aloqadorlik zinch holatda.

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mikroelementlar uzumning naviqa bog'liq ravishda ularning turli tana a'zolarida har xil miqdorlarda tabaqaqlashadi. Buni o'rganilgan mikroelementlarni turliha navli uzum navlari va ularni turli tana a'zolaridagi miqdorlaridagi farqlarni 1-rasmdagi geokimyoiy spektrlardan ham ko'rish mumkin.

Kimyoviy elementlarni migratsiyasi, akkumulyatsiya va differensiyatsiyalanishini ularning biologik singdirish koeffitsiyentlari orqali aniqlanadi.



1-SHOBA: BIOSFERADAGI TUPROQ BIOGEOKIMYOVIY JARAYONLAR

1-rasm. Uzum vegetativ organlarida biomikroelementlar miqdori geokimyoviy spektri

Mn, Mo, Zn, Cu kabi biomikroelementlarni tadqiqot obyektidagi tuproqlardagi hamda ularda yetishtirilayotgan uzum navlaridagi miqdorlariga asosan ularni biologik singdirish koeffitsiyentlari ishlab chiqildi hamda 3-jadvalda keltirildi.

3-jadval


Biomikroelementlarning biologik singdirish koeffitsiyentlari

Uzum navlari	Organlari	Mn	Mo	Zn	Cu
Saperavi	meva	0,0075	0,063	0,032	0,250
	tana	0,039	0,063	0,250	0,050
	barg	0,165	0,240	0,290	0,050
Xindogni	meva	0,0095	0,039	0,037	0,305
	tana	0,024	0,130	0,210	0,050
	barg	0,134	0,160	0,210	0,050
Bayan shirey	meva	0,0032	0,046	0,027	0,330
	tana	0,018	0,210	0,100	0,215
	barg	0,063	0,270	0,130	0,475

Keltirilgan jadvalda ma'lumotlarga ko'ra mikroelementlarning biologik singdirish koeffitsiyentlarda hamma holatda birdan kichik, demak, yalpi miqdorlar asosida tuzilgan qatorlardagi mikroelementlar uzum tomonidan faqatgina ushlab qolinadi, akkumulyatsiyalanmaydi. Mn elementi uzum mevasida kuchsiz darajada ushlab qolinadi, boshqa holatlarda mikroelementlar uzum tana a'zolari tomonidan o'rtacha darajada ushlab qolinadi.

Lekin, mikroelementlarning biologik singdirish koeffitsiyentlari orasida farqlar bo'lib, ular quyidagi diagrammada yaqqol ajralib turadi (2-rasm).

BSK



2-rasm. Uzum vegetativ organlarida biomikroelementlar miqdori diagrammasi

Umuman olganda, biomikroelementlarni biologik singdirish koeffitsiyenti (BSK) miqdorlariga ko'ra quyidagi ketma-ketlikda joylashadi:

Saperavi uzum navi organlarida mikroelementlarning BSK:

Mevasida: $Cu_{0,250} > Mo_{0,063} > Zn_{0,032} > Mn_{0,0075}$;

Tanasida: $Zn_{0,25} > Mo_{0,063} > Cu_{0,050} > Mn_{0,039}$;

1-SHOBA: BIOSFERADAGI TUPROQ BIOGEOKIMYOVIY JARAYONLAR

Bargida: $Zn_{0,29} > Mo_{0,24} > Mn_{0,165} > Cu_{0,050}$.

Xindogni uzum navi organlarida kimyoviy elementlarning BSK:

Mevasida: $Cu_{0,305} > Mo_{0,039} > Zn_{0,037} > Mn_{0,0095}$,

Tanasida: $Zn_{0,21} > Mo_{0,13} > Cu_{0,050} > Mn_{0,024}$,

Bargida: $Zn_{0,21} > Mo_{0,16} > Mn_{0,13} > Cu_{0,050}$.

Bayan shirey uzum navi organlarida kimyoviy elementlarning BSK:

Mevasida: $Cu_{0,33} > Mo_{0,046} > Zn_{0,027} > Mn_{0,0032}$,

Tanasida: $Cu_{0,215} > Mo_{0,21} > Zn_{0,10} > Mn_{0,018}$,

Bargida: $Cu_{0,425} > Mo_{0,27} > Zn_{0,13} > Mn_{0,063}$.

Mikroelementlarni biogen akkumulyatsiyasi oz miqdorda bo'lsada ushbu elementlarni tuproqdan yuvilib ketishiga hamda haydov qatlamlarida akkumulyatsiyalanishiga olib keladi. Bu holat sug'oriladigan tuproqlar uchun oz bo'lsada ijobiy hamda elementlarni harakatini ma'lum darajada stabillashtiradi.

XULOSA

Xulosa qiladigan bo'lsak, mikroelementlar xossalari ko'ra tuproq qatlamlarida turli miqdorlarda differensiatsiyalanadi hamda o'simlikni turli a'zolarida turlicha miqdorlarda to'planadi yoki kuchsiz va juda kuchsiz ushlanib qolinadi. Kimyoviy elementlarning akkumulyatsiya, migratsiya xususiyatlarini hamda o'simlikdagagi biologik singdirish koeffitsiyentlarini aniqlash orqali olingan ma'lumotlardan qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish jarayonlarida hamda mikroo'g'itlar me'yorlarini belgilashda foydalanish ekinlar hosildorligi va sifatini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Перельман А.И. Геохимия. - М., 1989. -419 с.
2. Глазовская М.А. Геохимические основы типологии и методики исследования природных ландшафтов: (Учеб. пособие). - М.: МГУ, 1964. - 230 с.
3. Виноградов А.П. Геохимия редких и рассеянных элементов в почвах. - М. РАН. - 2021. - 298 с.
4. Добровольский В. В. Геохимическое землеведение: Учебное пособие / - М.: Владос, 2008. - 208 с.
5. Turdaliyev A., Yuldashev G. Pedolitli tuproqlar geokimyosi. Monografiya // - Т. "FAN". 2015. - С. 41-48.
6. Исаков В.Ю. и др. Закономерности галогохимии почв Ферганской долины: Сб. науч. тр. Кыргызскоузбекский ун-тет. Вып.3. Ош. 2003. - С. 206-210.
7. Эшпулатов Ш., Юлдашев Г. Химические и геохимические свойства почв светлых сероземов. - Т. 2010. с. 89-97.
8. Xoldarov D. Markaziy Farg'onaning sho'rlangan o'tloqi saz tuproqlari va sho'rxoklari geokimyosi. Dis. avtoref. - Т. 2006. 24 b.
9. Юлдашев Г., Исагалиев М. Геохимия почв конусов выноса. - Т., Фан. 2012. -160 с
10. Turdaliyev, A., Yuldashev, G., Askarov, K., & Abakumov, E. (2021). Chemical and Biogeochemical Features of Desert Soils of the Central Fergana. Agriculture (Pol'nohospodarstvo), Vol. 67 (Issue 1).
11. Turdaliyev A. Markaziy Farg'ona yerlаридаги arzik-shoxli, shox-arzikli qatlamlar genezisi, fizik-kimyoviy va biogeokimyoviy xususiyatlari: b.f.d. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. B.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. 2016.
12. Cabata-Pendias A. Trace Elements in Soils and Plant. 4th. Boca Raton, FL: CRC Press, 2011. 548 p.
13. Андреева И.В. Особенности накопления и распределения никеля в некоторых сельскохозяйственных культурах. Автореф. дис. канд. биол. наук. М., 2003. 18 с.
14. Побилат А.Е., Волошин Е.И. Микроэлементы в сельскохозяйственных растениях (обзор). Микроэлементы в медицине, 2021, 22(3): 3-14.